J. Epshteynning "maktab – oila – jamoa sherikligi" modeli ushbu yo'nalishdagi eng ta'sirchan nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. U hamkorlikning olti turini (ota-onalik, muloqot, ko'ngilli faoliyat, uydagi ta'lim, qaror qabul qilish va jamoa bilan hamkorlik) ajratib ko'rsatadi [10, 41-75-b.].

J. Dyui esa ta'limni ijtimoiy tajribani qayta qurish jarayoni sifatida talqin etib, maktab va jamiyatning uzviy bog'liqligini asoslab bergan [11, 89-95-b.].

Ayni paytda G. Hornbi va R. Lafaele ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi omillarni tizimlashtirgan [12, 37-52-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolalar psixologiyasi sohasida J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faoliyati o'ziga xos bosqichlarda rivojlanishini ko'rsatadi. Bu esa kattalar tomonidan ko'rsatiladigan pedagogik yordamning bolaning yosh xususiyatlariga mos bo'lishini talab etadi [13, 152-160-b.].

M. Montessori esa bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitning puxta tashkil etilishi hamda oilaning faol ishtiroki bolada mustaqillikni shakllantirishning hal qiluvchi omillari ekanligini asoslab bergan [14, 27-35-b.].

Italiyaning Reggio Emilia pedagogik yondashuvi bolani "uch subyektli pedagogika", ya'ni bola, oila va pedagogning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli sifatida talqin etadi [15, 27-33-b.].

Shuningdek, G'arb pedagog olimlari ota-onalar ishtirokining ta'lim natijalariga ijobiy ta'sirini isbotlagan hamda "ijtimoiy kapital" nazariyasida oila va jamoa o'rtasidagi ishonchli munosabatlar inson kapitalini shakllantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatgan. Ushbu nazariy qarashlar ham korporativ ta'lim modelining sotsiologik asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb olimlari turli terminlardan foydalangan bo'lsalar-da, hamkorlikning zarurligi masalasida umumiy ilmiy xulosaga keladilar. Ayni paytda "korporativ ta'lim" tushunchasi orqali ushbu hamkorlikni yaxlit tizim sifatida konseptuallashtirish hamda unga mahallani to'laqonli subyekt sifatida kiritish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Korporativ ta'lim" atamasi dastlab biznes va menejment sohasida xodimlarni tashkilot ichida uzluksiz rivojlantirish tizimini ifodalash uchun qo'llanilgan. Biroq P. Sengenning "o'rganuvchi tashkilot" nazariyasi ushbu tushunchani yanada kengroq talqin etish imkonini berdi. Unga ko'ra, korporatsiya umumiy maqsad, taqsimlangan mas'uliyat va birgalikdagi o'rganish asosida faoliyat yurituvchi yaxlit tizim hisoblanadi [4]. Mazkur ma'noda korporativlik tijorat tuzilmasini emas, balki hamkorlikning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan xususiyatini anglatadi.

Pedagogikaga tatbiq etilganda "korporativ ta'lim" tushunchasi ta'lim subyektlari (maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla) o'rtasidagi hamkorlikni tasodifiy yoki epizodik emas, balki tizimli, maqsadga yo'naltirilgan



hamda o'zaro mas'uliyatga asoslangan birlashma sifatida tashkil etishni anglatadi. Korporativ ta'limni an'anaviy hamkorlikdan farqlovchi quyidagi besh asosiy belgi ajratiladi:

1. **Maqsadlarning yagonaligi** – barcha subyektlar umumiy tarbiyaviy natijaga yo'naltiriladi.
2. **Mas'uliyatning taqsimlanishi** – har bir subyekt o'z vazifasi va hissasini aniq biladi.
3. **Resurslarning integratsiyasi** – moliyaviy, kadrlar va ijtimoiy resurslar birlashtiriladi.
4. **Tizimli o'zaro aloqa** – doimiy axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.
5. **Natijaga yo'naltirilganlik** – hamkorlik samaradorligi muntazam baholanadi.

Mazkur belgilar korporativ ta'lim modelining konseptual asosini tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotning muhim metodologik masalalaridan biri "korporativ" atamasini tijoratlashtirish mazmunidan farqlashdir. Ushbu tushuncha ta'limni bozor xizmatiga aylantirishni emas, balki ijtimoiy subyektlarning umumiy maqsad yo'lidagi mas'uliyatli hamkorligini anglatadi. Shu ma'noda korporativlik zamonaviy institutsional jamoaviylik (kolle-giallik) shakli bo'lib, u Sharq madaniyatidagi hashar va mahalla an'analari bilan uyg'unlashadi. Demak, milliy ta'lim-tarbiya tizimida korporativ ta'lim g'oyasi begona hodisa emas, balki an'anaviy jamoaviylikning zamonaviy davomi sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik adabiyotlarda korporativ ta'lim modelining uch asosiy funksiyasi ajratiladi: integrativ (turli subyektlarni birlashtirish), kompensator (ayrim subyektlarning imkoniyatlari cheklan-ganligini boshqa subyektlar hisobiga to'ldirish) va rivojlantiruvchi (bola, ota-ona hamda pedagogning birgalikda rivojlanishini ta'minlash).

Aynan rivojlantiruvchi funksiya M. Montessori g'oyalari ^[14] bilan hamohang bo'lib, unga ko'ra tarbiya jarayonida nafaqat bola, balki kattalar ham rivojlanadi. Korporativ ta'lim modeli to'rtta fundamental nazariy yondashuvga tayanadi. Tizimli yondashuv hamkorlikni o'zaro bog'langan elementlardan iborat yaxlit tizim sifa-tida ko'rib chiqadi. Bunda har bir tarkibiy qism (maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla) umumiy natijaga xizmat qiladi. Ushbu yaxlitlik oddiy arifmetik yig'indidan ko'ra yuqori samarani ta'minlaydi, bu esa sinergetika qonunining pedagogik ifodasidir.

Ekologik yondashuv U. Bronfenbrenner nazariyasiga asoslanib, bolani o'rab turgan turli darajadagi muhitlar (mikrotizim, mezotizim, ekzotizim va makrotizim)ning o'zaro ta'sirini tahlil qiladi ^[16, 27-b.].

Korporativ ta'lim aynan mezotizim, ya'ni bolaning hayotidagi turli muhitlar o'rtasidagi bog'lanishlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Faoliyatli yondashuv bolani maktab ta'limiga tayyorlashda o'yin, muloqot va amaliy faoliyatning yetakchi rolini e'tirof etadi. Ushbu yondashuv J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan uzviy bog'liq ^[13].

Aksiologik (qadriyatli) yondashuv hamkorlikning ma'naviy-axloqiy asosini ta'minlaydi. Sharq peda-gogikasida qadriyatlar tizimi tarbiyaning markaziy omili hisoblanadi. Bu esa G'arbning ratsional-texnologik yondashuvini insonparvarlik mazmuni bilan boyitadi. Mazkur to'rt yondashuvning uyg'unligi korporativ ta'lim modelining metodologik puxtaligini ta'minlaydi. Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi jahondagi eng samarali ta'lim tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim "educare" – ta'lim va parvarish birligi tamoyiliga asoslanadi. Ota-onalar va pedagoglar birgalikda bolaning individual ta'lim rejasini ishlab chiqadilar. Bu esa hamkorlikni rasmiy munosabatlardan haqiqiy sheriklik darajasiga olib chiqadi ^[17].

Finlyandiya tajribasining muhim jihatlaridan biri pedagogga nisbatan yuqori ijtimoiy ishonch hamda oila bilan muntazam muloqotning yo'lga qo'yilganligidir. Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari (Kinderta-gesstätte) oila bilan hamkorlikni "ta'limiy sheriklik" (Erziehungspartnerschaft) tamoyili asosida tashkil etadi. Bunda ota-onalar va pedagoglar teng huquqli hamkor subyektlar sifatida qaraladi ^[18].

AQSh va Buyuk Britaniya tajribasida esa ota-onalarning maktab kengashlari orqali ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etishi hamda nodavlat tashkilotlarning faolligi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Biroq G. Hornbi ta'kidlaganidek, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik ota-onalarning ta'lim jarayoni-dagi ishtirokiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin ^[12].

Sharq davlatlari tajribasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Singapurda "Nurturing Early Learners" dasturi doirasida oila bilan hamkorlik bolalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ^[19].

Yaponiyada esa bog'cha jamoa hayotining uzviy qismi sifatida qaraladi va bolaning jamoaga moslashuvi (syūdan seikatsu) asosiy tarbiyaviy maqsad hisoblanadi. Ota-onalar bog'cha faoliyatida faol ishtirok etib, ota-onalar uyushmalari orqali ta'lim jarayoniga hissa qo'shadilar [20]. Janubiy Koreyaning "Nuri" dasturi esa davlat va oilaning birgalikdagi moliyaviy hamda pedagogik mas'uliyatiga asoslangan ^[21].

O'zbekiston tajribasi Sharq modelining yorqin namunasi bo'lib, unda mahalla instituti alohida o'rin egallaydi. Mahalla nafaqat hududiy birlik, balki tarbiyaning to'laqonli subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi. U oilalarga ijt-i-moiy ko'mak ko'rsatadi, milliy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatadi hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Ushbu uch tomonlama hamkorlik (maktabgacha ta'lim tash-kiloti – oila – mahalla) milliy pedagogikada korporativ ta'lim tendensiyasining o'ziga xos modelini shakllantiradi.




Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan qiyosiy tahlil Sharq va G'arb mamlakatlarida hamkorlik modellari turli madaniy-aksiologik asoslarda shakllanganligini ko'rsatdi. G'arb modeli, asosan, liberal-individualistik an'analarga tayangan holda, ota-onani ta'lim xizmatining teng huquqli subyekti va bolaning manfaatlarini himoya qiluvchi hamkor sifatida ko'radi. Bunda hamkorlik shartnomalar, ota-onalar kengashlari hamda rasmiy boshqaruv mexanizmlari orqali institutsionallashtiriladi. Sharq modeli esa jamoaviylik an'analarga asoslanadi. Unda oila va jamoa qadriyatlar, o'zaro hurmat hamda mas'uliyat tarbiyaning ma'naviy negizini tashkil etadi. Mazkur farq hamkorlikning tashkiliy shakllarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. G'arb mamlakatlarida ota-onalar ta'lim jarayonini boshqarish va nazorat qilishda faol ishtirok etsalar, Sharq mamlakatlarida ular, asosan, axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni uzatishga mas'ul hisoblanadilar. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari ta'sirida mazkur ikki model asta-sekin o'zaro yaqinlashib, gibril hamkorlik shakllari vujudga kelmoqda. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar beshta mezon asosida tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval: Sharq va G'arb hamkorlik modellarning qiyosiy tahlili

Mezon	Sharq modeli (Yaponiya, Singapur, O'zbekiston)	G'arb modeli (Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya)
Hamkorlik asosi	Jamoaviy qadriyatlar, mahalla instituti, oilaviy an'anal	Individual huquqlar, shartnomaviy sheriklik, ota-ona tanlovi
Mahalla / jamiyat roli	Yuqori - mahalla tarbiyaning to'laqonli subyekti	O'rtacha - nodavlat tashkilotlar va ko'ngillilar orqali
Ota-onaning ishtirok shakli	Axloqiy tarbiya, an'analarni uzatish	Ta'lim jarayonini boshqarishda ishtirok, monitoring
Boshqaruv modeli	Markazlashgan, davlat rahbarligida	Markazsizlashgan, munitsipal avtonomiya
Korporativlik darajasi	Yuqori (jamoaviylik asosida)	O'rtacha-yuqori (institutsional shartnoma asosida)

Yuqoridagi qiyosiy tahlil mazkur ikki model bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro bir-birini boyituvchi salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. G'arb modeli hamkorlikning huquqiy-institutsional asoslarini, shaffofligini hamda ota-onaning ta'lim jarayonidagi subyektlik maqomini kuchaytiradi. Sharq modeli esa hamkorlikning ma'naviy-aksiologik negizini, jamoaviy birdamlikni va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Ushbu ikki yondashuvning sintezi korporativ ta'lim tendensiyasining eng samarali modelini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasidagi ishtiroki ko'rsatkichlari ham qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Finlyandiya va Yaponiya kabi ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda ota-onalar ishtiroki indeksi eng yuqori ko'rsatkichlarni (mos ravishda 88 va 82 ball) tashkil etadi. Mazkur davlatlarda hamkorlik institutsional jihatdan puxta yo'lga qo'yilgan bo'lib, u milliy-madaniy an'anal bilan mustahkamlangan. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 66 ballni tashkil etib, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda foydalanilmagan rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi ham kuzatiladi. Ushbu salohiyatni ro'yobga chiqarishda mahalla institutining pedagogik imkoniyatlaridan tizimli va maqsadli foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm: Ota-onalar ishtiroki indeksi (qiyosiy ko'rsatkichlar, 0-100)



Shuningdek, zamonaviy G'arb pedagogikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida "ota-onalar ishtiroki" (parental involvement) tushunchasidan "ota-onalarning faol jalb etilishi" (parental engagement) tushunchasiga o'tilishi muhim ilmiy siljish sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki "ishtirok" ota-onaning ta'lim muassasasi tashabbuslari asosida amalga oshiriladigan nisbatan passiv faoliyatini anglatga, "faol jalb etilish" bolaning ta'lim-tarbiyasi uchun ota-onaning ichki mas'uliyati, tashabbuskorligi va faol hamkorligini ifodalaydi. Mazkur farq korporativ ta'lim modeli uchun prinsipial ahamiyat kasb etadi. Chunki haqiqiy hamkorlik ota-onani buyruq ijrochisi sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli hamkori va hammuallifi sifatida e'tirof etadi.

Demak, G'arb davlatlari tajribasidagi ushbu yondashuvlarni milliy ta'lim-tarbiya tizimiga moslashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ilg'or davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, korporativ ta'lim modelining besh komponentdan iborat tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur modelning har bir komponenti tegishli amaliy indikatorlar asosida baholanishi mumkin (2-jadval). Ushbu tuzilma maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval: Korporativ ta'lim modelining komponentlari va indikatorlari

Komponent	Mazmuni	Amaliy indikator
Maqsadli	Umumiy tarbiyaviy maqsad va qadriyatlarni belgilash	Yagona rivojlanish xaritasi
Mazmuniy	Ta'lim-tarbiya dasturlarini muvofiqlashtirish	Integratsiyalashgan dastur
Tashkiliy	Birgalikdagi loyiha, tadbir va aksiyalar	Qo'shma tadbirlar soni
Texnologik	Raqamli va interaktiv hamkorlik shakllari	Onlayn platforma qamrovi
Natijaviy	Bola rivojlanishi monitoringi va baholash	Tayyorgarlik indeksi

Maqsadli komponent modelning konseptual o'zagini tashkil etadi. U barcha subyektlarning umumiy tarbiyaviy maqsad atrofida birlashishini hamda faoliyatining yagona yo'nalishda tashkil etilishini ta'minlaydi. Mazmuniy komponent ota-onalar, pedagoglar va mahalla tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ta'sirlarini mazmunan muvofiqlashtiradi. Natijada tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar va takrorlanishlarning oldi olinadi. Tashkiliy komponent hamkorlikning aniq shakllarini – qo'shma tadbirlar, loyihalar va aksiyalarni rejalashtirish hamda amalga oshirishni nazarda tutadi. Texnologik komponent zamonaviy raqamli va interaktiv vositalarni hamkorlik amaliyotiga joriy etishni ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, yosh ota-onalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijaviy komponent esa hamkorlik samaradorligini, xususan, bolaning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini monitoring qilish va baholash imkonini beradi. Mazkur besh komponent o'zaro uzviy bog'langan yagona tizimni tashkil etadi. Ulardan birortasining yetarli darajada faoliyat ko'rsatmasligi butun tizim samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bu holat tizimli yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan elementlarning o'zaro bog'liqligi prinsipini tasdiqlaydi. Mazkur model G'arbnig institutsional sheriklik tajribasini Sharqning jamoaviy-aksiologik an'analari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti muvofiqlashtiruvchi markaz, oila birlamchi tarbiya muhiti, mahalla esa ijtimoiy-madaniy tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu tavsiyalarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish uchun quyidagi yo'l xaritasi taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval: Korporativ ta'lim modelini joriy etish yo'l xaritasi

Bosqich	Asosiy tadbirlar	Kutilayotgan natija
I. Tayyorgarlik	Diagnostika, kadrlarni tayyorlash, korporativ reja ishlab chiqish	Hamkorlikning huquqiy-tashkiliy asosi
II. Joriy etish	Interaktiv shakllar, raqamli platforma, ota-onalar maktabi	Faol hamkorlik amaliyoti
III. Monitoring	Indikatorlar bo'yicha baholash, qayta aloqa, korreksiya	Tayyorgarlik indeksining o'sishi

Ushbu yo'l xaritasi korporativ ta'lim modelini bosqichma-bosqich va tizimli ravishda joriy etish imkonini beradi. Birinchi bosqichda tashkiliy-huquqiy asos yaratiladi, kadrlar tayyorlanadi hamda diagnostika ishlari amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda hamkorlikning amaliy mexanizmlari yo'lga qo'yilib, interaktiv va raqamli shakllar joriy etiladi. Uchinchi bosqichda erishilgan natijalar belgilangan indikatorlar asosida baholanadi hamda zarur tuzatishlar kiritiladi. Mazkur siklik model (rejalashtirish – amalga oshirish – baholash – takomillashtirish) sifat menejmentining zamonaviy tamoyillariga mos keladi va hamkorlikning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda hamkorlik muammosiga yangicha integratsion-korporativ nuqtayi



nazardan yondashishni taklif etadi. An'anaviy tadqiqotlarda oila va bog'cha hamkorligi, asosan, ikki tomonlama munosabat sifatida o'rganilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda mahalla uchinchi to'laqonli subyekt sifatida model tarkibiga kiritildi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, mahalla instituti rivojlangan mamlakatlar (O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari) uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Olingan natijalarni xalqaro tadqiqotlar bilan qiyoslash ularning ilmiy ishonchligini tasdiqlaydi. J. Epshteynning "maktab – oila – jamoa sherikligi" modeli ham uch subyektli yondashuvni ilgari suradi, biroq u G'arb ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirilgan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu universal g'oyani Sharqning madaniy-aksiologik qadriyatlari bilan boyitish hamda mahalla institutining o'ziga xos pedagogik rolini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Bu esa qiyosiy pedagogika fanining rivojlanishiga milliy tajribaning ilmiy hissasini qo'shadi. Tadqiqot natijalari amaliyot uchun bir qator muhim xulosalarni beradi. Avvalo, hamkorlikni rasmiy tadbirlar majmuasidan tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va natijadorligi baholanadigan jarayonga aylantirish zarurligi aniqlandi. Ikkinchidan, Sharq va G'arb tajribalarining sintezi, ya'ni milliy an'analarni saqlagan holda ilg'or xalqaro tajribani o'zlashtirish eng samarali strategiya ekanligi asoslandi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar hamkorlikning yangi imkoniyatlarini yaratishi, biroq ular jonli va ishonchga asoslangan insoniy munosabatlarning o'rnini bosa olmasligi ta'kidlandi. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "...tarbiya masalasi jamiyat taqdirini belgilaydi". Demak, unga yuksak mas'uliyat bilan yondashish zarur.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda hamkorlikning fragmentar (parchalangan) talqinidan yaxlit tizimli modelga o'tish taklif etilgan. An'anaviy amaliyotda oila va bog'cha o'rtasidagi hamkorlik ko'pincha epizodik tadbirlar (bayramlar, yig'ilishlar va boshqalar) bilan cheklanadi. Korporativ ta'lim modeli esa ushbu hamkorlikni doimiy, rejali va maqsadga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi. Bu maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda hamkorlik jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar ham e'tiborga olingan. Amaliyotda oila va bog'cha o'rtasida tarbiya usullari, talablar hamda qadriyatlar borasida nomuvofiqliklar yuzaga kelishi mumkin. Korporativ model bunday ziddiyatlarni mazmuniy komponent orqali, ya'ni umumiy pedagogik yondashuvni ishlab chiqish yo'li bilan bartaraf etishni nazarda tutadi. Bu borada G'arb tajribasidagi "oilaviy-pedagogik shart-noma" amaliyoti alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi.

XULOSA

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bir necha jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, "korporativ ta'lim" tushunchasi maktabgacha ta'lim tizimidagi uch tomonlama (maktabgacha ta'lim tashkiloti – oila – mahalla) hamkorlikka nisbatan qo'llanilib, uning pedagogik mazmuni nazariy jihatdan asoslandi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb modellarining qiyosiy tahlili orqali qiyosiy pedagogika fanining rivojlanishiga milliy tajribaning ilmiy hissasi qo'shildi.

Uchinchidan, mahalla instituti tarbiyaning to'laqonli subyekt sifatida ilmiy jihatdan konseptuallashtirildi. Bu Markaziy Osiyo pedagogikasi uchun muhim nazariy yangilik hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan model, indikatorlar tizimi va yo'l xaritasidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini loyihalashtirishda;
- pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishda;
- ota-onalar uchun pedagogik ta'lim mazmunini ishlab chiqishda;
- soha bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni tayyorlashda;
- ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asosini takomillashtirishda.

Mazkur natijalar maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan model universal xususiyatga ega bo'lsa-da, uning asosiy ustunligi madaniy moslashuvchanligidadir. Ya'ni model har bir mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin. Masalan, mahalla instituti rivojlangan Markaziy Osiyo davlatlarida uchinchi subyekt sifatida mahalla, G'arb mamlakatlarida esa nodavlat va jamoat tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Ushbu moslashuvchanlik modelning keng qo'llanish imkoniyatini ta'minlaydi hamda uning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi hamda quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini berdi. "Korporativ ta'lim" tushunchasi maktabgacha ta'lim sohasiga



tatbiq etilib, uning pedagogik mohiyati ta'lim subyektlarining umumiy maqsad, taqsimlangan mas'uliyat va birgalikdagi faoliyat asosidagi tizimli hamkorligi ekanligi asoslandi. Qiyosiy tahlil Sharq va G'arb modellarning bir-birini inkor etmasligini, aksincha, o'zaro to'ldirishini ko'rsatdi. G'arbning institutsional aniqligi Sharqning jamoaviy qadriyatlari bilan uyg'unlashganda eng samarali natija ta'minlanadi. Mahalla instituti tarbiyaning to'laqonli uchinchi subyekti sifatida model tarkibiga kiritildi hamda uning pedagogik salohiyati nazariy jihatdan asoslandi. Hamkorlik samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi va uni joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan besh komponentli model hamkorlikning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy, texnologik va natijaviy jihatlarini yagona tizimga birlashtirib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash uchun qulay ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida tashkil etish turli davrlar pedagogik qarashlari va ilmiy yutuqlarining uzviy uyg'unlashuvi natijasidir. Abu Rayhon Beruniy ilm-fan va bilimning ahamiyatini ulug'lagan, Abdulla Avloniy tarbiyani millat taqdirini belgilovchi omil sifatida baholagan, J. Dyui esa ta'limni hayotning o'zi deb ta'riflagan. Mazkur buyuk g'oyalar bugungi kunda yagona pedagogik tizimda uyg'unlashib, bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam ilmiy va amaliy zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. Mirziyoyev Sh.M. Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi // Sh.M. Mirziyoyevning konferensiya ochilish marosimida nutqi. – <https://kun.uz/news/2022/11/15/> (murojaat sanasi: 25.07.2026).
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 38.
4. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 2006. – P. 3-11.
5. Heckman J.J. Skill Formation and the Economics of Investing in Disadvantaged Children // Science. 2006. – P. 1900-1902.
6. Конфуций. Лунь Юй. – Москва: Восточная литература, 2001. – <http://lib.aldebaran.ru> (дата обращения: 28.07.2026).
7. Махмудов А.О. Фарзанднома. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – Б. 8.
8. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 22.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – С. 117-119.
10. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. – Boulder, CO: Westview Press, 2011. – P. 45-52.
11. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916. – P. 89-95.
12. Hornby G., Lafaele R. Barriers to Parental Involvement in Education: An Explanatory Model // Educational Review. – 2011. – Vol. 63, No. 1. – P. 37-52.
13. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – P. 152-160.
14. Montessori M. The Absorbent Mind. – New York: Henry Holt, 1995. – P. 27-35.
15. Edwards C., Gandini L., Forman G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience. 3rd ed. – Santa Barbara: Praeger, 2012. – P. 27-33.
16. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – P. 27.
17. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care. – Helsinki: EDUFI, 2018.
18. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend. Bildung, Betreuung und Erziehung für Kinder unter drei Jahren. – Berlin: BMFSFJ, 2013.
19. Ministry of Education Singapore. Nurturing Early Learners: A Curriculum Framework for Kindergartens. – Singapore: MOE, 2012. – P. 8-12.
20. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Course of Study for Kindergarten. – Tokyo: MEXT, 2017.
21. Ministry of Education Republic of Korea. Nuri Curriculum for Ages 3-5. – Seoul: MOE, 2019.
22. Бердибеков П.К., Фазилова Д.Х., Юнусова Ч. Проектная деятельность в дошкольном образовании // Молодой ученый. – 2016. – № 1. – С. 691-693.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.